

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI

**«Oliy matematika va axborot texnologiyalari»
kafedrası**

REFERAT

**Mavzu: Internetda qidiruv sistemalari bilan
ishlash**

**BAJARDI: 1-kurs “Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim
yo`nalishi 71-guruh talabasi M.Bahodirov**

QABUL QILDI: N.Nematov

Andijon 2016

Mavzu: Internetda qidiruv sistemalari bilan ishlash

Reja:


1. Internetda ma'lumotni qanday topish mumkin?
2. Sahifa nomi noma'lum bo'lgan holda nima qilish zarur?
3. Google qidiruv sistemasi
4. O'zbekiston qidiruv sistemalari

Internet millionlab kompyuter va tasavvur qilib bo'lmaydigan hajmdagi axborotni o'z ichiga mujassamlagan. Har daqiqada bu kompyuterlarda axborot hajmi ko'payadi. Bu axborot olamida adashib qolish tabiiy. Adashmaslik va ma'lumotni topish uchun ikki usul mavjud. Bu Internets maxsus jildlar (kataloglar) va qidiruv bilan shug'ullanadigan serverlar mavjud. Ular ko'p emas, lekin juda ommabop. Server katta hajmdagi xotira va tezlikka ega. SHuning uchun birdaniga u bir necha so'rovlarga javob bera oladi. Ko'p xollarda bitta server bir necha (o'nlab) kompyuterlardan tuziladi.

Har bir qidiruv serveri tarmoq sahifalari bo'yicha ma'lumotlar jildiga ega. Jildda axborotning turgan joyi, qisqacha izohi, tavsifi va boshqa ma'lumotlar joylanadi. Jild millionlab sahifalar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi. Qidiruv serverlar foydalanuvchilar haqidagi ma'lumot bilan ham to'ldirilib turadi. Bu foydalanuvchi adresi, ochilgan sahifalar nomi, foydalanilgan qidiruv sistemalari nomi haqidagi ma'lumotdir.


Internetda ma'lumotni qanday topish mumkin? Ma'lumot joylashgan sahifa manzilini bilsangiz, bu muammo bir zumda xal bo'ladi. Sahifa to'liq manzilini "Adres" maydonida kiritsangiz, qidirilayotgan ma'lumot ekranda namoyon bo'ladi. Bir necha daqiqadan so'ng so'ralgan sahifa ekranda paydo bo'ladi.

Masalan, **www.rambler.ru** sahifasini ochish zarur. U holda adres maydonida shu nomni yozasiz va **Enter** ni bosasiz. Natijada ekranda sahifa hosil bo'ladi (3.11-rasm).




3.11-rasm

Ba'zi xollarda sahifa topilmaganligi va hozircha unga ulanish mumkin emasligi haqida ma'lumot hosil bo'ladi (3.12-rasm).



3.12-rasm

Sahifa nomi noma'lum bo'lgan holda nima qilish zarur? Lekin ma'lumot mavzusi ma'lum. U holda Internetning maxsus qidirish sistemalaridan foydalanish mumkin. WWW da bir necha qidirish sistemalari mavjud. Asboblari panelidagi **Poisk** komandasini kiriting. Ekranda maxsus qidiruv sahifasi hosil bo'ladi (3.15-rasm). Ma'lumotni topish uchun mavzu nomini maxsus maydonga kiritish zarur. Natijada ma'lumot server omboridan qidiriladi. Qidirish natijasi ekranda hosil bo'ladi.




3.15-rasm

Masalan, agar "Internet haqidagi" ma'lumotlar zarur bo'lsa, "Ob Internet" so'zini qidirish maydoniga yozasiz. Natija ekranda hosil bo'ladi. Mavzu aniq bo'lsa, javob tezda va aniq topiladi.

YAna bir usul bu adreslar maydonida kerakli mavzuni kiritish mumkin. Bunda mavzuni topish uchun so'z yoki atama kiritiladi. So'zdan oldin "+" belgisi bo'lsa, bu qidirilayotgan so'z shu hujjatda borligini bildiradi. Topilishi zarur bo'lgan jumla qo'shtirnoq ichiga olinishi shart. Agar so'rov kichik xarfdan berilsa, natija kichik va bosh xarfli so'zlarni o'z ichiga oladi. YA'ni internet so'rovi natijasi Internet, internet, INTERNET ni topib beradi, ammo INTERNET so'rovi internet ni topib bermaydi.

YOki qidiruv sistemalaridan foydalanishingiz mumkin. Masalan, juda qulay va taniqli **Yahoo** sistemasidan foydalanishingiz mumkin. Buning uchun adreslar maydonida www.yahoo.com manzilini kiriting. Natijada ekranda quyidagi darcha hosil bo'ladi (3.16-rasm).




3.16-rasm


So'rov natijalari ro'yxat shaklidagi ilovalardan va ularning tavsifidan tashkil topadi. Unda ma'lumotlar bo'limlarga, bo'limlar esa bo'linmalarga bo'lingan bo'ladi.

Masalan, yangiliklar bilan tanishmoqchi bo'lsangiz, kerakli satrda sichqoncha tugmachasini bosish etarli. Ekranda yangiliklar qisqacha tavsifi bilan keltiriladi.

Sahifaning o'rtasida maxsus joyda SEARCH tugmachasi joylashgan. Unda mavzu nomini kiritish va qidiruv natijasini olish mumkin.

Rambler, Yandex va Google qidiruv sistemalari ham shu kabi ishlatiladi.





Google qidiruv sistemasi

Internet da ma'lumot (axborot)larni qidirish uchun quyidagi URL manzillar ko'p ishlatiladi:

Lycos



NTTR://www.lycos.com/

1994 yilning oxiridan ishlayotgan qidiruv sistemasi. Eng keksa ommaviy qidiruv sistemalardan biri bo'lib, keng foydalanuvchilar doirasiga ega.

Rambler



NTTR://www.rambler.ru

Rossiya eng katta qidiruv sistemasi. 10500 Rossiya serverlarida

qidiruv olib boradi.

Aport



NTTR://www.arort.ru/

Qidiruvni 100000 dan ortiq Rossiya va ingliz tilli serverlarda olib boradi. So'rovni rus tiliga tarjima qiladi.

Yandex



NTTR://www.yandex.ru/

9000 ta Rossiya serverini o'z ichiga olgan qidiruv sistemasi.

Tela



NTTR://www.tela.dux.ru/

1000 Rossiya serverini qamrab olgan DUX kompaniyasining qidiruv sistemasi.

All Stars



NTTR://www.stars.ru/

Axborot resurslari bo'ylab ma'lumotnomali **qidiruv** sistemasi.

Ulitka



NTTR://www.ulitka.ru/

Internet ning rus tilidagi resurslariga ega bo'lgan eng yosh qidiruv sistemasi.

O‘zbekiston qidiruv sistemalari

Assalom InterNet



NTTR://www.assalom.uz/

O‘zbekistondagi birinchi qidiruv sistemasi. Resurslarini ko‘paytirish imkoniyatlari mavjud.

Welcome to Uzbekistan



NTTR://www.gov.uz/

O‘zbekiston Respublikasi hukumati sahifasi. Rasmiy axborot, Oliy majlis qarorlari haqida ma’lumot beradi.

Uzbekistan-Reference



NTTR://www.book.uz/

O‘zbekiston Respublikasi haqidagi axborotni o‘z ichiga oladi.



www.freenet.uz

Respublika Internet resurslari haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.



www.baht.uz

Ommabop ma’lumotlar to‘plami.



www.esezam.uz

Markaziy Osiyo, Kavkaz va Rossiya informatsion portali. Xudud Internet resurslari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Mamlakatlarga oid ensiklopedik ma’lumotlar keltirilgan.